

Jizzakh State Pedagogical Institute



***Journal of Preschool
Education***

***The faculty of pre-school
education***

INGLIZ TILINI MAKTABGACHA TA'LIMDA O'YINLAR YORDAMIDA O'RGGATISH

*G'aniyeva Xayrinso Baxtiyorovna
JDPU Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi,
Nizomova Gulmira Yodgor qizi - talaba*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida nutqiy muloqotni rivojlantirishning ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: nutqiy muloqot, , nutq, o'qish, uzuksiz ta'lim, o'yin, ta'lim-tarbiya, yozish .

Ilmiy kuzatish va tadqiqotlar natijasida inson o'z hayoti davomida oladigan barcha ma'lumotning yetmish foizini besh yoshgacha bo'lgan davrda olib ulgurishi aniqlangan. Bugungi kunda ta'lim sohasiga har qachongidan ham ko'proq ahamiyat berilmoqda. Bu esa, o'z navbatida uzuksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi.

Bizga ma'lumki qadimdan chet tillarini o'rganishga talab katta bo'lib kelmoqda. Xususan bugungi kunda ham muhtaram prezidentimiz SH.Mirziyoyev tomonidan 2021-yilning may oyida Vazirlar Mahkamasi huzurida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligiga asos solgan bo'lib, bu idora zimmasiga ta'limning barcha bosqichlarida o'qitish usullarini tadbiq etish, samarali dastur va darsliklar ishlab chiqarish vazifasi yuklatilgan. Ushbu sa'y-harakatlar doirasida hukumat O'zbekiston fuqarolari va umuman raqobatdoshligini oshirish ko'tilayotgan 10 ta tilni tanlab olgan. Ulardan eng asosiy urg'u ingliz tiliga qaratilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi prezidentining 10-dekabr kuni qabul qilingan qaroriga binoan, 2013-o'quv yilidan boshlab maktablarda ingliz tilini 1-sinfdan boshlab o'rgatish joriy qilindi. O'zbekistonda ingliz tilini metodikasi va dasturlarini ishlab chiqish va qo'llanmalarini yaratishda AQSH, Angliyada mutaxassislar va Ta'lim vazirliklariga yaqindan ko'mak beradi. Masalan, AQSH Markaziy Osiyo davlatlari uchun "Hududiy ingliz tili markazi" (Regional English Language Office) tashkil etgan. Idora regiondagagi ingliz tili o'qituvchilar malakasini oshirish uchun muntazam ravishda treyning va seminarlar tashkil etgan. Hozirda maktablar qatorida ham maktabgacha ta'limda ham ingliz tilini o'rgatish tobora rivojlanib bormoqda. Maktabgacha va Boshlang'ich ta'limdagi bolalar uchun bu balki murakkab hisoblanishi mumkin. Ammo taraqqiyotimiz rivojlanib borgan sari raqobat kuchayib bormoqda. Albatta raqobat bor joyda rivojlanish bo'lgani kabi bu

maktabgacha bo‘lgan ta’limda ham ko‘plab iqtidorli talabalar yetishib chiqmoqda. Bu yo‘l ish bo‘yicha o‘qiyotgan talabalarga prezidentimiz tomonidan ham juda ko‘plab imkoniyatlar berilmoqda. Bu borada bolalarga chet tilini o‘rgatish uchun ham o‘z metodlari bor. Masalan, avvalam bor darsda bolalarni diqqatini bitta joyga ya’ni darsga qaratib olish kerak. 3-4 yoshdagi bolalarning hissiyotlari yaxshi rivojlangan bo‘ladi. Ya’ni qo‘rquv, jahl, qayg‘urish ularning yuzidan juda yaqqol ko‘rnadi. Ular boshqa bolalar bilan urushib qolishi, nimagadir totishib qolishi va boshqa biriga qayg‘urishlari mumkin. 5-6 yoshdagi bolalar esa o‘z harakatlarida hissiyotlarni bevosita namoyon etishdan o‘zini tuta olishi yoki oliv hissiyotlariga asoslanib harakat qilishi mumkin. Shu asosda har bir bolaga bir xil tarzda dars o‘ta bilish kerak. Darslarni xursandlichik va o‘yinlar tarzida olib borsa yosh bolalarda til o‘rganishga bo‘lgan qiziqish uyg‘onadi va vazifalarni ham vaqtida qilishga va darslarda faol qatnashishga harakat qiladi. Maktabgacha bo‘lgan bolalarning xotiralari o‘zlarining faoliyatlari uchun qandaydir ahamiyatga ega bo‘lgan, ularda kuchli taassurot qoldirgan va ularni qiziqtirgan nasralarni beixtiyor eslarida saqlab qoladilar. Ya’ni bog‘cha yoshdagi bolalarga dars o‘tishning o‘z metodikasi bor. Bu yoshdagi bolalar ko‘rgan va eshitgan narsalarini juda tez yod olishishadi. Shu yo‘l natijasida bolalarga ingliz tiliga oid qiziqarli videolar, ashulalar, musobaqalar, o‘yinlar orqali darslarni qiziqarli o‘tqazish o‘qituvchining asosiy vazifasi hisoblanadi. Ularga musobaqalarda g‘olib bo‘lgan bolalarga har xil sovg‘alar bilan taqdirlansa, boshqa bolalar ham shu bolaga tanqid qilish orqali ham o‘rganib boradi. Har bir darslarda bolalarga ingliz tiliga oid qisqa janrdagi qiziqarli va kulguli bo‘lgan multfilmlar yoki video rolliklar qo‘ylisa ulardagi obrazlarning ish harakatlari orqali ham bolalar ularni mazmunini tushunishga harakat qila boshlashadi. Asosan, bolalar darslarda zerikib qolmasligi kerak bo‘ladi, chunki bola zerika boshlasa undagi til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi kamayib boradi va u o‘rganishni xohlamay qoladi. Dars jarayonida ham har xil o‘yin va musobaqalar ham tashkillashtirish kerak. Masalan, ingliz tilining harflarini yod olishda, ingliz tilida International Conference on Developments in Education Hosted from Toronto, Canada <https://econferencezone.org> April 15th -16th 2022 2 she’rlar yod olishda juda ko‘plab o‘yinlar tashkillashtirsa bo‘ladi. N.M.Aksarinaning takidlashicha, o‘yin o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi, buning uchun kamida uchta sharoitda bo‘lishi lozim.

- a) Taassurotlar tarkib topishi;
- b) Har xil ko‘rinishidagi o‘yinchoqlar va tarbiyaviy ta’sir vositalarning muhayyoligi ;
- c) Bolalarning kattalar bilan tez-tez muomala va muloqatga kirishuvi. Bunday sharoitlar natijasida yaratilingan muhitda bolalar ingliz tilini yaxshi o‘zlashtirishadi. Masalan unday o‘yinlarga quyidagilarni keltirishimiz mumkin: “Pantomima” o‘yinida 3 kishi ajratiladi. Har bir guruuhdan bittadan kishi doskaga chiqariladi. Ularga turli so‘zlar ro‘yxat asosida beriladi. Ular biror bir so‘z

aytmasdan imoishoralar, harakatlar orqali, so‘zlarni qolgan guruh a’zolariga tushuntirish kerak. “Muammoli vaziyatlar yechimi” (Creative Problem Solving) bu usulni qo‘llash uchun hikoyaning boshlanishi o‘qib beriladida qanday yakun topishi o‘quvchilar , talabalar hukmiga havola qilinadi. Bu o‘yinlarning ham o‘ziga tegishli bo‘lgab vazifalari bor. Masalan, mana bu “Pantomima” bu o‘yin juda qiyin mavzu tushuntirilishi kerak bo‘lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, talabalar charchagan vaqtida foydalansa bo‘ladi. Yana bu “Hikoyalar zanjiri “ usuli orqali o‘g‘zaki nutqini o‘stirishda katta yordam beradi. Xulosa qilib aytganda maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda ingliz tiliga qiziqish uyg‘otish va darslarni qiziqarli tarzda o‘rgatishlarni rivojlantirish kerak. Bu borada ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qo‘llash o‘quvchilarning mantiqiy va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, og‘zaki nutqini ravonlashtiradi, tez va aniq javob berish malakasini shakllantiradi. Ta’lim tizimi o‘z oldiga erkin fikrlovchi , barkamol yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo‘yar ekan, kelgusida biz bo‘lajak pedagogiklar innavatsion texnologiyalardan samarali foydalanishimiz yo‘llarini yanada mukammalroq ishlab chiqishimiz bilan o‘z hissamizni qo‘shishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.Nishonova, G. Alimova “Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi” O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti Toshkent – 2006
2. Bekmurodova U.B “Ingliz tili o‘qitishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish” Toshkent – 2012yil.
3. Mefharet Veziroglu-Celik, Ibrahim Hakki Acar Teaching Approaches and Practices of Student Teachers in Early Childhood Education: A Convergent Mixed Methods Study. <http://jets.redfame.com>
- 4.MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA CHET TILINI O‘RGATISH VA HOZIRDA CHET TILIGA BO‘LGAN E’TIBOR Ganiyeva X. JDPI o‘qituvchi Mamarahimova M. JDPI talabasining maqolasi. 2022